



## BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH VA ATROF MUHITGA TA'SIRNI KAMAYTIRISHDA XALQARO KELISHUVLARNING AHAMIYATI

**Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li**  
Xalqaro Nordik Universiteti,  
ORCID: 0000-0002-1161-8960  
[turgunov.jasurbek1123@gmail.com](mailto:turgunov.jasurbek1123@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Barqaror rivojlanishni ta'minlashda xalqaro me'yoriy hujjatlarning ahamiyatini o'rganadi. Tadqiqot iqlim o'zgarishi jumladan, CO<sub>2</sub> gazining emissiyasini miqdoriy ko'rsatkichlarini tahlil qilgan. Atrof-muhit barqarorligini ta'minlashda xalqaro me'yoriy hujjatlarni amal qilish mexanzimlariga to'xtalib o'tadi. Shuningdek, maqola Paris kelishuvini ta'minlashda samarali chora-tadbirlarni joriy etish masalasiga ham alohida e'tibor qaratadi.

**Kalit so'zlar:** kioto bitimi, Paris kelishuvi, iqlim o'zgarishi, isiqxona gazlari, ratifikatsiya, yashil texnologiyalar, zararli gazlar emissiyasi.

## ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СОГЛАШЕНИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И СНИЖЕНИИ ВОЗДЕЙСТВИЯ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ

**Тургунов Джасурбек Алимардон угли**  
Международный Северный университет

**Абстракт.** В данной статье исследуется важность международных правил в обеспечении устойчивого развития. В исследовании были проанализированы количественные показатели изменения климата, включая выбросы CO<sub>2</sub>. Основное внимание уделяется механизмам реализации международных нормативных документов в обеспечении экологической стабильности. Также в статьеделено особое внимание вопросу реализации эффективных мер по обеспечению Парижского соглашения.

**Ключевые слова:** киотское соглашение, Парижское соглашение, изменение климата, парниковые газы, ратификация, зеленые технологии, выбросы вредных газов.

## THE IMPORTANCE OF INTERNATIONAL AGREEMENTS IN ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND REDUCING IMPACT ON THE ENVIRONMENT

**Turgunov Jasurbek Alimardon ugli**  
International Nordic University

**Abstract.** This article explores the importance of international regulations in ensuring sustainable development. The study analyzed quantitative indicators of climate change, including CO<sub>2</sub> emissions. It focuses on the mechanisms of implementation of international regulatory documents in ensuring environmental stability. Also, the article pays special attention to the issue of implementing effective measures to ensure the Paris Agreement.

**Keywords:** kyoto agreement, Paris agreement, climate change, greenhouse gases, ratification, green technologies, emission of harmful gases.

## Kirish.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, hamda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish masalasi XXI asr kun tartibidagi masalaga aylandi. Shuningdek, sanoat rivojlanishi oqibatida atmosferaga chiqayotgan uglevodorod gazi miqdori yil sayin ko'paymoqda. Bu esa zararli gazlar miqdorini ortishi, keskin iqlim o'zgarishlarini yuzaga keltirdi.

1992 yilda Rio-de-Jeneyroda Atrof-muhit va uning rivojlanishi bo'yicha konferensiya o'tkazildi. 1997 yilda Kioto protokoli imzolandi. Kioto protokoli - BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha Konvensiyasiga qo'shimcha ravishda qabul qilingan hujjat bo'lib, Yaponianing Kioto shahrida 1997 yil dekabr oyida qabul qilingan. Ushbu hujjat turli xil mamlakatlar va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari oldiga issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish vazifasini qo'ydi.<sup>23</sup>

Ushbu hujjat atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini bosqichma-bosqich kamaytirib borishni ko'zda tutdi. Kioto protokoli bozor mexanizmining boshqaruviiga asoslangan, ya'ni issiqxona gazlarining chiqarilishi bo'yicha xalqaro kvotalar savdosiga asoslangan atrof-muhit muhofazasi borasida birinchi global kelishuv edi. Protokolning birinchi bosqichi 2008 yil 1 yanvardan boshlanib, 2012 yil 31 dekabrga qadar amalda bo'ldi. Ushbu protokolga asosan mamlakatlar besh yil davomida atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari miqdorini qisqartirish borasida majburiyat oldilar. Protokol belgilangan davrda 6 turdag'i gazlar emissiyasini (karbonat angidrid, metan, fтор uglevodorodlar, fтор uglerodlar, azot oksidi, oltingugurt geksaftori) 1990 yilga nisbatan 5,2% ga qisqartirishni ko'zda tutgan edi.

BMT Iqlim o'zgarishi doiraviy konvensiyasi konferensiyasining 21-sessiyasida Parij kelishuvi qabul qilindi. Hozirgi vaqtda Parij kelishuvini imzolagan 197 mamlakatdan 180 tasi ushbu hujjatni ratifikatsiya qilgan. Kelishuvni ratifikatsiya qilmagan mamlakatlar kuzatuvchi maqomiga ega hamda ular uchun iqlimi moliyalashtirishdan foydalanishda cheklashlar mavjud.

Parij kelishuvi qazib chiqariladigan tabiiy resurslarni olish, qayta ishslash va ulardan foydalanishdagi an'anaviy texnologiyalardan "yashil" texnologiyalarga bosqichma-bosqich o'tish asosida iqtisodiy o'sishning yangi, kam uglerodli modelini shakllantiradi. Ushbu kelishuviga ko'ra mamlakatlar issiqxona gazlarini chiqarish masalasida rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam berish bo'yicha alohida xalqaro majburiyat qabul qilmaydilar. Aksincha har bir mamlakat iqlim o'zgarishi muammosi bo'yicha tegishli milliy qarorlar qabul qilishi va ularni muntazam ravishda qayta ko'rib chiqishi lozim.

Ekologik muammolarni hal etish masalasi BMT "Barqaror rivojlanish maqsadlari 2030" rejalarida ham o'z aksini topgan. Jumladan, 2030 yilga qadar atmosferaga issiqxona gazlarini chiqarish hajmini 2010 yil darajasiga nisbatan 45%ga, 2050 yilga qadar esa 0%ga qadar qisqartirish mo'ljallangan.

## Adabiyotlar sharhi.

Ilmiy adabiyotlarda atof-muhitni tatribga soluvchi xalqaro me'yoriy hujjatlar va Paris kelishuvi yuzasidan bir qator xorijlik olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Elinor va Ostromning fikricha (1990) Parij kelishuvi atrof-muhit barqarorligi yo'lida hamkorlik qilishning eng so'nggi urinishi hisoblanadi. Tadqiqotchilar Devid va Kempbell (2016) hamda Young va Oran (2016) Parij kelishuvi mamalakatlar iqtisodiyoti va ekologiyasiga ta'sir qilishi va foyda keltirishini keng miqyosda muhokama qildilar. Ushbu maqolalar Parij kelishuvining amaldagi imkoniyatlariga tegishli edi. Boshqa tadqiqotchilar Devid va Viktor (2016) Paris kelishuvining amalga oshirish va iqlim o'zgarishlariga keng jamoatchilikni hamkorlikka o'rgatish masalasiga katta e'tibor qaratdi. Keohane va Oppeneymer (2016) Parij kelishuvning ahamiyati va uning oqibatlari, shuningdek, uning muvaffaqiyat darajasi haqidagi fikrlarni ilgari surdi. Bodanskiy (2016) fikricha 2015 yilgi Parij kelishuvi iqlim o'zgarishi bo'yicha barcha

<sup>23</sup> <http://unfccc.int/resource/docs/convpk/kprus.pdf>

mamlakatlar uchun siyosiy majburiyatlarni o'z ichiga olgan birinchi global kelishuvdir. Bu global iqlim boshqaruvida pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga yondashuvlarni o'z ichiga olgan gibrid. Ge and Friedrich (2020) fikricha Paris kelishuvining birinchi sharti zararli gazlar emitentlar bilan bog'liq harakatlardir. Ularning fikricha Xitoy, Yevropa Ittifoqi (Yevropa Ittifoqi) va AQSH jami global zararli gazlar emissiyasining deyarli yarmini tashkil qiladi: 26% (Xitoy), 8% (Yevropa Ittifoqi) va 13% (AQSh). Dimitrov va boshqalarning (2019) tadqiqotlari shuni ko'rsatdiku Paris kelishuvidagi maqsadga erishish atrof-muhit sohasidagi ishtirokchilarning siyosat yuritish darajasi va emissiya traektoriyalariga ta'siriga bog'liq bo'lishini ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, tahlillar Paris kelishuvi va Kioto protokoli o'rtasidagi farqni ham taqqoslab bergen. Adresen va boshqalar (2016) tadqiqotlariga ko'ra Parij kelishuvi siyosiy va universal kelishuvga erishildi va o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'ydi. Bu esa o'z navbatida davlatlar o'zlarining asosiy manfaatlari juda xilma-xil bo'lishiga qaramay, kelishuvni qabul qilganliklari ko'rsatdi.


### Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda statistik tahlil, solishtirma va prognozlashtirish usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar barqaror rivojlanishni atrof-muhitga ta'sir etishi borasdiagi xalqari shartnomalar va kelishuvlarga oid statistik ma'lumotlarni to'plamini o'z ichiga oladi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Har yili atmosferaga 100 million tonnadan ortiq uglevodorod chiqariladi. Shuning 74 foizi rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Rivojlangan mamlakatlarda har kuni aholi jon boshiga 1 kg.dan 3 kg. gacha qattiq maishiy chiqindilar ishlab chiqarilmoqda. AQSHda ushbu ko'rsatkich har 10 yilda 10%ga ortib bormoqda. Rossiyada esa chiqindilar to'planadigan maydonlar 2 ming kv. km.dan ortiq maydonni tashkil etadi. Shu bilan bir vaqtida chiqindilarni oqilonqa boshqarish tizimini yaratish jiddiy iqtisodiy dividend keltirishi mumkin.

2023 yilda global issiqxona gazlari emissiyasi avvalgi yiliga nisbatan ikki foizga oshib, yangi rekord darajadagi 53 milliard metr tonna karbonat angidrid ekvivalentiga yetdi. Bu 1990-yildan buyon issiqxona gazlari emissiyasining 60 foizdan miqdorida oshganligini ko'rsatadi. (1-rasm) Emissiyalarning doimiy oshishi global iqlim namunalari va atrof-muhit barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Paris kelishuvining maqsadi esa maqsadi issiqxona gazlari emmisiyasini kamaytirishdan iboratdir. Kelishuv, ushbu sohada moliyaviy, texnologik va salohiyatni oshirish uchun asos yaratadi.



1-rasm. 1970-2023 yillarda Butun jahon bo'ylab issiqxona gazlarining atmosferaga chiqarilishi ( $\text{CO}_2$  mlrd metr tonna hisobida)

Hozirda rivojlanayotgan mamlakatlar iqlim o'zgarishi ta'siridan eng ko'p zarar ko'rmoqda. Jumaladan Germaniya hukumati 2019-yil 20-sentyabrdan Parij kelishuvi ko'rsatkichlariga erishish maqsadida iqlim o'zgarishlari bo'yicha yangi chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqdi. Germaniya iqlim dasturiga muvofiq 2030-yilda issiqxona gazlari emissiyasi miqdorini 1990-yilga nisbatan 55,0%, 2050-yilda esa 80-95%ga qadar qisqartirish rejalashtirilgan. Mamlakatda 2019-yilda issiqxona gazlari emissiyasi miqdori 1990-yil darajasiga nisbatan 35,7%ni tashkil etdi.


Issiqxona gazlari emissiyasi byudjeti 2026-yilga qadar belgilab qo'yilgan va 2050-yilga qadar Parij kelishuviga muvofiq har yili kamaytirib boriladi. Auksionlarda uglerod narxi bozor mexanizmlari asosida shakllanadi va bir tonna CO<sub>2</sub> uchun 35-60 yevro atrofida narx belgilanadi.<sup>24</sup>

### Xulosa va takliflar.

Parij kelishuvida global haroratning ko'tarilishini cheklash va moslashish mexanizmlarini amalga oshirish zarurligi, kelishuvning barcha tomonlari bu sa'y-harakatlarda ishtirok etishi zarurligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, moslashuv milliy darajada rejalashtirish va amalga oshirish predmeti sifatida ham, xalqaro miqyosda rag'batlantirish, hisobot berish va taraqqiyotni baholash sub'yekti sifatida ham ko'rib chiqiladi. Parij kelishuvi uchta asosiy maqsadga erishishga qaratilgan uzoq muddatli maqsadlardan iborat:

1. Global haroratning ko'tarilishini 2 ° C gacha cheklash;
2. Mamlakatlarning uglerod chiqindilarini kamaytirish majburiyatlarini har besh yilda qayta ko'rib chiqish;
3. Rivojlanayotgan mamlakatlarga iqlimni moliyalashtirishga yordam berishdir.

Parij kelishuvida tomonlar iqlim o'zgarishining turli tizimlarga ta'sirini va ularning zaif tomonlarini baholashni hamda milliy moslashish rejalariga ega bo'lishini aniq talab qiladi. Bundan tashqari, kelishuv mamlakatlar tomonidan ko'rigan moslashuv choralarini, ularning amalga oshirilishi va samaradorligi to'g'risida xalqaro darajada to'liq hisobot berishni nazarda tutadi.



**2-rasm. Paris kelishuvining 2050 yilga qadar amal qilish mexanizmi**

**Manba:** Muallif ishlansasi.

<sup>24</sup> <https://www.cleanenergywire.org/factsheets/germanys-greenhouse-gas-emissions-and-climate-targets>

Parij kelishuvida, mamlakatlarning birlgilikda harakat qilish va iqlim o'zgarishiga javobgarlikni kuchaytirishga zaruratinini yaratadi. Ushbu kelishuv ko'zlangan maqsadlarga erishishi turli omillar, masalan, mamlakatlardagi iqlim o'zgarishiga oid milliy dasturlar tizimi va hisobotlar, turli sohalarni moliyalashtirish imkoniyatlarni talab etadi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda quyidagi ustuvor yo'naliшharda xatti harakatlarni amalga oshirish lozim:

1. Sof va xavfsiz energiyadan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash
2. Sanoatda issiqxona gazlari emissiyasini keskin qisqartirish rejalarashtirilgan.
3. Bioxilma-xillik va ekotizimlarni saqlab qolish va tiklash.
4. Atrof-muhitni ifloslanishia qarshi keskin choralarini ko'rish .

Yuqoridaqilardan kelib chiqqan holda, Paris kelishuvini amalga oshirish mamlakatlarga ekologik muammolarni bartaraf etishda ulkan natijalarni taqdim etadi.

#### ***Adabiyotlar/Литература/Reference:***

Andresen S, Skjærseth JB, Jevnaker T, Wettestad J. (2016) *The Paris agreement: Consequences for the EU and Carbon Markets? Politics and Governance.* 4(3):188–196. doi: 10.17645/pag.v4i3.652.

Bodansky D. (2016) *The legal Charcter of the Paris Agreement, Review of European, Comparative and International Law.*

Campbell, David, (2016) *What does the Paris Agreement actually do?, Energy and Environment, Vol. 27(8), 883–895.*

Dimitriov R, Hovi J, Sprinz DF, Sælen H, Underdal A. (2019) *Institutional and environmental effectiveness: Will the Paris agreement work? WIRES Climate Change.* 10(4):1–12. doi: 10.1002/wcc.583.

Ge M., Friederich. D (2020) *Four charts explain greenhouse gas emissions by countries and sectors. World Resources Institute Blog.* <https://www.wri.org/blog/2020/02/greenhouse-gas-emissions-by-country-sector>.

Keohane, Robert O., Oppenheimer, Michael, (2016) *Paris: Beyond the Climate Dead End through Pledge and Review, Politics and Governance, Volume 4, 1-10.*

Ostrom, Elinor (1990) *Governing the Commons "The Evolution of Institutions for Collective Action", United States, Cambridge University Press.*

Turg'unov J. A. (2024). *Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholash. Qo'qon universitetida o'tkazilgan "Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami.* 935-939 betlar.

Turg'unov J.A (2024) *Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnali – Toshkent, 7-son. 196-201 betlar.*

Turg'unov J.A. (2024). *Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish yo'llari. Yosh tadqiqotchi jurnali 3-son, 15-24 betlar.*

Victor, David G. (2016) *What the Framework Convention on Climate Change Teaches Us About Cooperation on Climate Change, Politics and Governance, Volume 4, Issue 3, 133-141.*

Young, Oran R. (2016) *The Paris Agreement: Destined to Succeed or Doomed to Fail, Politics and Governance, Volume 4, Issue 3, 124-132.*